

"TASDIQLAYMAN"

**Samarqand viloyat hokimligi
Injineriing Kompaniyasi direktori**



A.ilmuratov

_____ 2022-yil

**Samarqand davlat universitetining Pedagogika instituti negizida tashkil etilgan
Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti
binosini qurish bo‘yicha loyiha oldi va loyiha qidiruv ishlari hamda ishchi
loyihasini ishlab chiqish uchun**

LOYIHALASH TOPSHIRIG‘I

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni.
1	Ob'yekt nomi.	Samarqand davlat universitetining Pedagogika instituti negizida tashkil etilgan Samarqand davlat universitetining O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti 750 o'rinli o'quv binosini qurish bo'yicha loyiha oldi, loyiha qidiruv ishlari va ishchi loyihasini ishlab chiqish
2	Ob'yekt manzili	Samarqand shahri Spitamen shoh ko'chasi 166-uy
3	Loyihalashtirish uchun asos.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30-iyundagi 408-sonli qarori
4	Buyurtmachi	Samarqand viloyati hokimligi Injining kompaniyasi
5	Bosh loyihachi	Tanlov savdosi natijalariga asosan aniqlanadi
6	Bosh pudratchi qurilish tashkiloti	Tender (Tanlov) savdosi natijalariga asosan aniqlanadi
7	Qurilishning taxminiy muddatlari.	2022-2023yil
8	Loyihalashtirish bosqichi	1 bosqichli loyihalashtirish
9	Qurilish turi.	Yangi qurilish
10	Moliyalashtirish manbai.	Davlat byudjet mablag'lari.
11	Qurilish maydoni haqida ma'lumot va rejalashtirish cheklovlari. Maxsus geologik va gidrogeologik sharoitlar (qurilish maydoni xarakteristikasi)	Muhandislik-qidiruv ishlari xulosasiga binoan.
12	Obyektning asosiy ko'rsatkichlari va binoning funksional maqsadiga qo'yiladigan talablar.	<p>Loyihada bino 7- qavatli: Binoning umumiy maydoni bosh rejada belgilanadi.</p> <p>Ma'muriy-o'quv guruhining binolari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'quv bo'limi boshlig'ining xonasi; - o'qituvchilar xonasi; - psixolog kabineti; -direktor xonasi; - kitob saqlash xonasi bo'lgan o'qish zali; - o'quv xonalari; -chet tillari xonalari; -laboratoriyalar; -inventar xona; -galereya; -Yoshlar ittifoqi xonasi; -ma'naviyat-ma'rifat xonasi; - maxsus darslar: informatika, kimyo-biologiya, fizika, lingafon sinf, tasviriy san'at va chizmachilik kabineti. <p>2) Qabul guruhi:</p> <ul style="list-style-type: none"> -xoll, tambur; - qorovul xonasi, qabulxona; - shaxsiy buyumlar uchun joylar (talabalar uchun individual shkaflar va boshqa mebellar); - yo'lak; -kovorking zonasi; -Snaryadlar xonasi; - majlislar zali (mavjud majlislar zali bo'lmasa) - o'quv ustaxonalari (qizlar va o'g'il bolalar uchun); - hojatxona va qo'l yuvish xonalari. har bir qavatda.

		<p>3) Oziq -ovqat blogi: - oshxona; - ovqatlanish zali; - idish tovoq yuvish xonasi; - un bo'limi; - go'sht va baliq bo'limi; - oziq -ovqat ombori; - xodimlar xonasi.</p> <p>4) kommunal xonalar: - texnik xona (boshqaruv bloki); - server xonasi; - xo'jalik ombori.</p> <p>5) tibbiy bo'lim: - shifokor xonasi; - davolash xonasi:</p> <p>6) yopiq sport zali va uning yordamchi xonalari: - sport zali; - kiyim almashtirish xonalari; - xojatxona va qo'l yuvish xonalari; - murabbiylik; - sport anjomlarini saqlash xonasi.</p>
13	Loyiha yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar	Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni
13.1	Arxitektura-qurilish, rejalashtirish va konstruktiv echimlar, blokirovka qilish shartlari, binoni pardoqlashga qo'yiladigan talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Hududiy rejalashtirish va kompleks yechim tanlashda ajratiladigan yer maydonlarining belgilangan miqdor birliklaridan oshib ketmasligi va har bir hudud maydoni imkoniyatlaridan unumli foydalanish omillarini ko'zda tutish lozim; - Institut binosini loyihalashda konstruktiv yechimini tanlashda, xorijiy malaka va tajribalarga tayangan holda va mahalliy qurilish mahsulotlaridan unumli foydalanilib asosli, eng arzon va maqbul yechimlar tanlanishi lozim; - Institut binosini arxitekturaviy-me'moriy yechimini tanlashda respublika miqyosida qurilishi rejalashtirilgan har bir hudud ijtimoiy va me'moriy-madaniy ananalari, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng maqbul kompleks yechim tanlanishi lozim; - Binolar, xonalar, ularning maydonlarini joylashishi bo'yicha loyihalashda texnologik va arxitekturaviy-me'moriy rejalashtirishda o'quv xonalarini maqsadiga, funksional joylashtirishda (зонирование), tabiiy yorug'lik tushishiga va shamollatishga e'tibor berish lozim; - Kompleks tarkibiga kiruvchi bino va inshootlar loyihaviy yechimlarini bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyuldagi PQ-5188-sonli qarorida keltirilgan maqsadlar uyg'unligini ta'minlash, xususan: - Institut kutubxona kompleksini A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning electron axborot-kutubxona fondiga va yetakchi xorijiy axborot-kutubxona resurslari fondlariga ulash, talabalarga mazkur kutubxonalardan keng foydalanishga imkon yaratish; - talabalarining liderlik, tizimli tahlil qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash, loyihalarni boshqarish ko'nikmalariga o'rgatish;

-malakali mutaxassislar, mentorlar(ustozlar) ,ekspertlar va axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarni jalb etgan holda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv IT ta'limi joriy etilishini ko'zda tutish;

-institut talabalarining soni xona (auditoriya) da 30 nafardan oshmasligini ta'minlash;

Rejalashtirish bo'yicha qarorlar binolarning maqsadlariga muvofiq, shuningdek, insolyasiya, shamollatish tizimlari va tabiiy yoritishni hisobga olgan holda o'quv jarayoni texnologiyasini va funksional guruhlashtirishni hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.

- ichki pardozlash: devorlarni suvash, so'ngra suv asosli bo'yoq bilan ranglash

- xojatxona, qo'l yuvish xonalari va oshxona: devorlar qoplama keramik plitali, qoplama balandligi SHNQ ga muvofiq aniqlanadi, qolgan qismlari suv asosli bo'yoq bilan bo'yaladi;

- shiftlar:

a) yo'laklar, xonalar suv asosli bo'yoq bilan bo'yaladi;

b) xojatxona va namligi yuqori xonalar plastikka o'xshash suv o'tkazmaydigan materiallardan;

- eshiklar:

a) yashash xonalari, kabinetlar - MDF, tashqi – alyumin profil;

b) xojatxona va namligi yuqori xonalar metal-plastik profildan

- derazalar: metal-plastik ikki kamerali oynali, xonani tabiiy shamollatish uchun fortochka;

- tokchalar:plastidan;

- pol:

a) yo'lak va koridorlar marmar yoki aglomerat;

b) xojatxona va namligi yuqori xonalar mahalliy ishlab chiqarishdagi keramik plitalar;

- zinapoyalar: marmar yoki aglomerat bilan qoplash, tutgichlar metaldan, dekorativ panjaralar;

- kirish ayvoni: asosiy kirishda yong'inga pardoshli materiallardan, qolgan kirish ayvonlari yengil konstruksiyalardan;

- xojatxona va qo'l yuvish xonasi: umivalnik, unitaz, dush poddoni va boshqalar;

- elektr yoritgichlar: energiya tejuvchi lampalar, har bir xonada rozatkalar 4-5 tadan kam emas;

-Texnik xonalar pollari beton qoplamalaridan;

-zinapoyalar - marmar yoki oq rangli aglomerat (bir butun) materialidan, (zinapoyalar pardoz plitalari (ступенка) qalinligi-3,0 sm, zinapoya osti pardoz plitalar (подступенка) qalinligi-2,0 sm);

-binoga kirish qismidagi granit qatlamlar sirtiga qumlama apparati bilan ishlov berish yoki bruschatka o'rnatish;

13.2	Konstruktiv yechimlar, yuk ko'taruv va tusuvchi konstruksiyalar materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar	<p>- Loyihalash va konstruktiv yechimlarda zamonaviy loyihalash va qurilish tajribasini hisobga olishi kerak.</p> <p>Barcha konstruksiya va materiallar mavjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanishi kerak.</p> <p>Loyihani ishlab chiqishda materiallarga minimal ta'sirni hisobga olgan holda texnologik echimlarni qo'llash kerak.</p> <p>Tanlashda me'moriy jihatdan ekspresiv, texnologik va energiya tejaydigan zamonaviy dizayn va texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratish kerak.</p> <p>Loyiha qarorlarini amalga oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning muqobil energiya manbalaridan foydalanish kerak.</p> <p>Binolar konstruksiyalarini favqulodda vaziyatlarda, shu jumladan yong'in va zilzilalarda progressiv buzulishlardan himoyasini ta'minlashni ko'zda tutish.</p> <p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - poydevorlar - quyma temir-beton yoki yig'ma; - konstruktiv sxema - pishiq g'isht yoki g'ovakli beton (gazbeton, penobeton va boshqalar) dan qilingan materiallar bilan to'ldirilgan quyma temir-beton karkas; - tashqi devorlarning qalinligi 51 sm; -oraliq devorlar -xonalarda "KNAUF" tipidagi metall karkasli gipsokartonli (ikkala tomondan ikki qavatli gipsokarton) yoki pishiq g'isht qalinligi 120 mm; -san.uzel va texnik xonalar –pishiq g'isht, qalinligi 120 mm; -oraliq yopmalar - tayyor g'ovakli temir-beton plitalar; - zinapoyalar - quyma yoki yig'ma temir-beton; - tom yopmasi–yog'och karkasli, qalinligi kamida 0,5 mm bo'lgan bo'yalgan gofrotunuka (profnastil)bilan qoplangan shamollatiladigan. - tomning issiqlik izolyasiyasi - qalinligi issiqlik texnikasini hisoblash asosida kengaytirilgan polistirol yoki yong'in-kvarts qumidagi shisha tolali plitalar; - Yomg'ir suv quvuri (vodostok) - tashqi tashkil etilgan yomg'ir suv lotoklari va suv quvuri polimer qoplamali ruxlangan metal quvurdan;
14	Muhandislik va texnologik jihozlar, muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlashni loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablar.	<p>- Ta'minot tarmoqlari uchun loyihaviy yechimlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg'or texnologiyalari va uskunalaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.</p> <p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <p>Elektr tizimi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - elektr ta'minotining ishonchlilik darajasi bo'yicha – II toifa; - energiya tejash chora-tadbirlar; - binoning elektr yoritish tizimini loyihalashtirishda QMQ 2.01.05-98 va QMQ 2.04.17-98, shuningdek elektr inshootlarining amaldagi qoidalariga (PUE) muvofiq 3 tarmoqli mis simdan foydalangan holda loyihalash, favqulodda yoritishni ta'minlash. Zazemleniya va zanulenieni ko'zda tutish. Elektr energiyasini hisobga olish uchun elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) ko'zda tutish.

- kalitlar(vklyuchatel) ni pol satxidan 0,90 m, rozetkani 0,40 m balandlikda o'rnatish;
- 60x60 sm o'lchamdagi (LED) yoritgich va auditoriya xonalariga doskasi yuqorisiga yoritgich o'rnatish.

Isitish va shamollatish:

Binoni isitish tizimini loyihalashtirishda modulli qozonxona o'rnatish. Nasos o'rnatilishi bilan ikki quvurli tizim. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolyasiyasini ta'minlash. Quvurlar devor ostida (kanallarida) yashiringan holda amalga oshirilishi kerak. Radiatorlar-bimetalik.

Uskunalar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqaruvchilari "Buyurtmachi" bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Xonadagi havo haroratini hisobini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq belgilash.

-Alohida yechimlarga ko'ra eng ma'qul va samarali sovitish tizimlari(кондиционирование)ni loyihalash(Чиллер,канальное кондиционирование,система ВРФ или другие);

Ochilish oynalari bo'lgan tabiiy shamollatish. Ta'minot va chiqindi ventilyasiyasini o'rnatish.

Loyihalashda QMQ 2.01.18-2000 * ga energiya iste'mol qilishning yangi standartlarini hisobga olgan holda QMQ 2.04.05-97 va binolarni loyihalash qo'llanmasining talablariga rioya qiling.

Qozonxona qurilishi ko'zda tutilsin.

Suv ta'minoti va oqova suv tarmog'i:

Suv ta'minoti QMQ 2.04.01-98 va QMQ 2.04.02-97 ga muvofiq amalga oshirilishi;

-Ichki sovuq ichimlik suvi polipropilen (ПП) asosidagi quvurlardan tayyorlanishi;

-Oqova suv va ichimlik suvining magistral quvurlarini o'tkazish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. Sovuq suv tizimi quvurlario'rnatish devor to'siqlarining kanallarida yashirin bo'lishi;

-Kirish joyida sovuq suv sarfini o'lchashi ta'minlanishi kerak;

-Ichki issiq suv ta'minoti tizimi polipropilen (ПП) asosidagiquvurlardan tayyorlanishi;

-Oqova suv tarmog'i (канализация) va ichimlik suvining magistral quvurlarini o'tkazish shaxtalarda amalga oshirilishi kerak. Issiq suv iste'molchilariga quvurlar va chiqishlarni yotqizish devor to'siqlarining kanallarida yashirin bo'lishi;

-Quvurda suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik himoya qatlami bo'lishi ta'minlash;

-Tashqi birlashgan kommunal va ichimlik suvidan yong'inga qarshi suv ta'minotini ta'minlash;

-Agar tashqi kommunal va ichimlik suvi ta'minotidagi bosim o't o'chirish ehtiyojlari uchun etarli bo'lmasa, yong'inga qarshi nasos stantsiyasini ta'minlash;

Yong'inga qarshi quvurlar ГОСТ 10704-91 bo'yicha po'lat quvurlardan yasalgan bo'lishi;

-Yong'inga qarshi suv ta'minoti uchun asosiy quvurlarni o'tqazish shaxtalarda amalga oshirilishi;


14.1

14.2		<p>-Xonalarda ko'ndalang quvurlarni yotqizish polning ostki qismi va shiftning osti orqa qismidan amalga oshirilishi;</p> <p>-Oqova suv tizimi QMQ 2.04.01-98 va QMQ 2.04.03-97 ga muvofiq amalga oshirilishi;</p> <p>-Ichki oqova suvtarmoqlari yuqori quvvatli va gigienik xususiyatlarga ega PVX quvurlardan yasalgan bo'lishi;</p> <p>-Oqova suv chiqishini hudud ichidagi oqova suv tarmog'iga chiqishi va asosiy ulanish tarmog'iga bog'lash ta'minlanishi ;</p> <p>-Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan joylarda oqova suv quvurlarini tozalash imkoniyatini ta'minlash;</p> <p>- Sanuzel xonasidagi traplar xonaning chet burchagida o'rnatish;</p> <p>-Suv va suvoqova quvurlarlar(yong'in xavfsizligi suv quvurlaridan tashqari) devorlarga yashirinholatdao'rnatilsin;</p> <p>-Yong'ir suvlaridrenaj quvurlarini binoning tashqi devorlari bo'ylab yotqizib, ularning rangi bino fasadi rang sxemalariga muvofiq tuzilishi;</p> <p>-Sovuq davrda quvurlarda suv muzlashining oldini olish uchun quvurlarni isitishni ta'minlash;lozim.</p> <p>Majmuaviy xavfsizlik tizimi: Amaldagi me'yor va talablarga muvofiq, loyihada binoning yong'in signalizatsiyasi va ogohlantirish tizimi, hamda video kuzatuv bilan jihozlanishi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. "Internet" tarmoqlariga ulanish texnik shartlarga asosan amalga oshiladi</p> <p>Yong'in o'chirish tizimi: Loyihalashtirishda amaldagi me'yorlar "Yong'indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong'indan habarlash va yong'in o'chirish moslamalari"ga muvofiq SHNQ 2.04.09-07"Bin va inshootlar yong'in avtomatikasi" talablari asosida amalga oshirish. Hisob-kitobga ko'ra nasosli yong'in xavfsizlik idishi (yomkost) ni nazarda tutish. Past kuchlanishli tok tizimlari: "Internet" tarmoqlariga ulash, yong'in xavfsizlik va habarlash tizimi. Yong'in xavfsizligi talablari SHNQ 2.01-04 bo'yicha bajarilishi kerak</p>
15	Energiya samaradorligi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq obyektning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy innovatsion yechimlarni taqdim etish. Lampalarni energiyani tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsiya materiallari va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishni ta'minlash.
16	Maktab maydonini obodonlashtirish.	Binolardan holi bo'lgan va obodonlashtirish uchun mo'ljallangan institut maydonini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish loyihasini amalga oshirish. Hududda obodonlashtirish ishlarining quyidagi turlarini ta'minlash. Ajratiladigan limit-doirasida. a) Institut hududini perimetri buyicha o'rashda: - metall, panjara; - balandligi kamida 1,6 m bo'lgan shlakobloklardan;

16.1		<p>b) dam olish joylari;</p> <p>v) 12mx24m o'lchamdagi mini stadioni (dumaloq yugurish yo'lagi, sport o'yinlari uchun birlashtirilgan maydon, sakrash sektori bilan);</p> <p>g) asfalt yoki beton qoplamali transport yo'llari, shu jumladan yong'in xavfsizlik texnikasi uchun;</p> <p>d) piyodalar uchun beton yo'laklar;</p> <p>e) hududni tashqi yoritilish tizimi svetodiodli lampalarni ko'zda tutish.</p>
17	Texnologik yechimlar va uskunalar	<p>Kutubxonaning o'qish zalida davriy nashrlarni, bolalar uchun badiiy adabiyotlarni ochiq saqlashni ta'minlash.</p> <p>Oshxona, ovqat xonasi jihozlari yarim tayyor mahsulotlardan foydalanishni hisobga olgan holda ta'minlanishi kerak.</p>
18	Atrof muhitni muhofaza qilish	Atrof muhitga ta'sir bayonotlari (ZVOS) loyihasini ishlab chiqish
19	Harakati cheklangan shaxslar sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	SHNQ 2.07.02-07 ni hisobga olgan holda, harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar (nogironlar va boshqalar) aholi guruhlari uchun qulay kirishni ta'minlash choralari ko'rish, nogironlar va harakatlanishi cheklangan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalash.
20	Tegishli idoralar bilan muvofiqlashtirish zarurligi to'g'risida ko'rsatma	Buyurtmachi bilan birgalikda loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish.
21	Namoyish materiallarini tayyorlash	Binoning bosh rejasi va fasadi, shuningdek ichki(o'quv xonalari, yo'laklar, vestibul, zallar, sport zali, faollar zali, kutubxona, laboratoriya, yo'lak, qabulxona, sanitariya bo'limi) bezak dizayni albomini zamonaviy dizayn elementlaridan foydalangan holda ishlab chiqish.
22	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli Qarorining 4-chi bandiga asosan, 2021 yil 01-oktabridan boshlab, qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan ob'ektlarning boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirilib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar, hamda o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakillantirilsin.</p> <p>Narxlar joriy qiymatlarda, SHNQ 4.01.16-09 "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" talablari asosida belgilanadi.</p>
23	Loyihalash uchun buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan dastlabki ma'lumotlar tarkibi	<p>Loyihalashtirish topshirig'i-buyurtmachi tomonidan beriladi.</p> <p>Tender tanlov savdolari shartlariga asosan ART-1.2;</p> <p>topografik(M1:500), geologiya hulosasi, muhandislik qidiruv ishlari, texnik shartlar loyiha tashkilotlari tomonidan olinadi zaruriy holatlarda buyurtmachi tomonidan buyurtma asosida olinishi lozim;</p>

Izox: Tanlov savdolari natijasiga ko'ra aniqlangan loyiha tashkiloti tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganishlar natijasiga asosan loyihalash topshirig'iga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Injining Kompaniyasi "Birlamchi ruxsat beruvchi, loyiha va tanlov hujjatlarini tayyorlash bo'limi" boshlig'i



A.Qodirov